
“BESH TASHABBUS OLIMPIADASI” AMALDA

Toshloq tumanidagi 5-umumiy oʻrta taʼlim maktabida "Besh tashabbus olimpiada"si doirasida sportning voleybol turi boʻyicha tuman bosqichi boʻlib oʻtdi.

Ushbu musobaqa mahalla yoshlari oʻrtasida tashkil etilib, unda 16-21 yoshli oʻgʻil-qizlar voleybol boʻyicha qanchalik faol va unga boʻlgan qiziqishlari yuqori ekanliklarini namoyish etishdi.

Musobaqa yakunida gʻolib va sovrindorlar diplom va qimmatbaho esdalik sovgʻalari bilan taqdirlandilar.

2022-10-25 08:52:11